

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “ Biologiya va qishloq xo’jalik
mahsulotlari texnologiyalari kafedrası**

**professor-o‘qituvchilari tashabbusi bilan Zulfiyaxonim
tavalludining 110- yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan
“Bahor-tabiat hayoli, hamisha muqaddas o‘zbek ayoli”**

nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir

B A Y O N N O M A S I.

Denov tumani

28.02.2025 y

Qatnashdilar: Biologiya va qishloq xo’jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrası
professor-o‘qituvchilari

KUN TARTIBI

- 1.Shoiri Zulfiya tavalludining 110-yilligi munosabati bilan shoiraning hayoti va ijodiga nazar tashlash.
- 2.Bellashuvni yuqori saviyada o‘tkazish.
- 3.Tadbirda faol ishtirok etgan talabalarni esdalik sovg‘alar bilan taqdirlash.

Tadbirni Biologiya kafedrası mudiri dotsent M.K.Hamroyeva ochib berdi.va shoiri hayoti va ijodi haqida talabalarga qisqacha ma’lumot berib o‘tdi.Shundan so‘ng kafedra kata o‘qituvchisi dots.M.Xalmuratov yaqinlashib kelayotgan bahor bayrami hamda, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan kafedraning barcha olima ayollari hamda talabalarini tabrikladi. Tadbirda ishtirok etayotgan kafedraning o‘qituvchilari bayram munosabati bilan tabriklab, she’rlar va qo’shiqlar kuylashdi.



Shundan so'ng tadbirning asosiy qismiga navbat berildi. Kafedraning biologiya yo'nalishi 2-bosqich talaba-qizlari va qishloq xo'jaligi yo'nalishi 2-bosqich talabalari o'zaro quyidagi shartlar bo'yicha bellashdilar:

1. Tanishtiruv

2. Zulfiya ijodi yuzasidan qisqacha savol-javob.

3. Karvin san'ati

4. Erkin mavzu.

Tadbirning asosiy qismi sifatida "Zulfiyaning munosib vorislari" deb nomlangan qizlar o'rtasida ijodiy-intellektual bellashuv o'tkazildi.

Bellashuv 3 bosqichda tashkil etildi:

1-bosqich: Zulfiyaxonim hayoti va ijodiga oid savol-javob (bilim sinovi)

2-bosqich: "Ona, ayol, vatan" mavzusida badiiy ifodali she'r o'qish (ijodiy chiqish)

3-bosqich: Erkin fikr-mulohaza – "Zulfiyaning asarlari bugun menga nima berdi?"

Bellashuvda jami 12 nafar iqtidorli talaba qizlar ishtirok etdi. G'oliblar hay'at a'zolari tomonidan aniqlandi va quyidagicha taqdirlandi:

1-o'rin: Biologiya yo'nalishi talaba-qizlari

2-o'rin: Qishloq xo'jaligi yo'nalishi talaba-qizlari

Tadbir yakunida institut san'at to'garagi a'zolari tomonidan sahna ko'rinishlari va musiqali chiqishlar namoyish etildi.

Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan tadbir institutda ma'naviy muhitni boyitdi. Qizlar o'rtasidagi bellashuv yosh avlod qalbida ijodiy fikrlash, nutq madaniyati va o'zligini anglash tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qildi.



QAROR QILINDI:

1. Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan tadbir institutda ma'naviy muhitni boyitdi deb hisoblansin.
2. Qizlar o'rtasidagi bellashuv yosh avlod qalbida ijodiy fikrlash, nutq madaniyati va o'zligini anglash tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qildi deb hisoblansin.
3. Tadbirda faol ishtirok etgan talabalar taqdirlansin.

Kafedra mudiri:

Kotib:



dots.M.K.Hamroyeva.

D.Sodiqova.